

## RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI OMONIM SO'ZLAR

*Sabrina Ziyodova*

*Termiz davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti, talaba*

*Email: [sabrinaziyodova@icloud.com](mailto:sabrinaziyodova@icloud.com)*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada rus va o`zbek tillaridagi omonimlarning o`rni, ahamiyati va ularning turli jihatlari tahlil qilingan. Rus va o`zbek tilidagi omonim so`zlar o`xshash bo`lsada, ularning grafik va fonetik xususiyatlari o`rtasida sezilarli farqlar mavjud. Rus tilida grafik va fonetik omonimlar ko`proq uchrab, shakl o`zgarishi bilan yangi ma`no ifodalaydigan omonimlar hosil qiladi. O`zbek tilida esa ko`pincha shakli bir xil, lekin grammatik jihatdan o`zgarmas omonimlar ko`pdir. Maqola tilshunoslar va tarjimonlar uchun omonimlarning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganishda yordam beradi.

**Kalit so`zlar:** omonim, rus, o`zbek, atama, til, shakl, farq, tilshunos, tarjima, adabiyot, so`z, asar, turkum, faol, tur, tahlil, birikma, ifoda, o`xshash, kontekst.

### **Аннотация.**

В данной статье анализируется роль и значение омонимов в русском и узбекском языках и их различные аспекты. Хотя омонимы в русском и узбекском языках схожи, между их графическими и фонетическими особенностями имеются существенные различия. В русском языке графические и фонетические омонимы более распространены и образуют омонимы, выражающие новое значение путем изменения своей формы. В узбекском языке много омонимов одинаковой формы, но грамматически неизмененных. Статья поможет лингвистам и переводчикам изучить специфические особенности омонимов.

**Ключевые слова:** омоним, русский, узбекский, термин, язык, форма, различие, лингвист, перевод, литература, слово, произведение, категория, активный, тип, анализ, сочетание, выражение, сходство, контекст.

### **Abstract**

This article analyzes the role and importance of homonyms in the Russian and Uzbek languages and their various aspects. Although homonyms in the Russian and Uzbek languages are similar, there are significant differences between their graphic and phonetic features. In the Russian language, graphic and phonetic homonyms are more common and form homonyms that express a new meaning by changing their form. In the Uzbek language, there are many homonyms with the same form, but grammatically unchanged. The article will help linguists and translators to study the specific features of homonyms.

**Keywords:** homonym, Russian, Uzbek, term, language, form, difference, linguist, translation, literature, word, work, category, active, type, analysis, combination, expression, similar, context.

*“Tilimizni asrang, bizning go`zal rus tilimiz xazina, bu bizga ajdodlarimiz tomonidan meros qilib olingan boylikdir! Ushbu kuchli vositani hurmat bilan ishlating: mohir qo`llarda u mo`jizalar ko`rsatishga qodirdir.”*

*I.S.Turgenev*

Omonimlar (omo... va yunoncha Oputa – nom, ism) – umumiy ma’no unsurlariga ega bo‘lmagan, tasavvuriy bog‘lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so‘zlar; ular orasida semantik aloqa bo‘lmaydi. Ana shunday so`zlarning tilda mavjud bo`lishi va shunga bog`liq hodisalar omonimiya deyiladi. Omonimlarning lug‘aviy va grammatik ko‘rinishlari farqlanadi. “Omonimiya” atamasi fanga Aristotel tomonidan kiritilgan. Ular tilning boyligi va ifodaviyligini oshiradi. Ba`zan ular tushunish uchun qiyinchilik tug`dirishi mumkin, ular ko`pincha kontekst asosida tushuniladi.

Tilshunoslikda va kundalik muloqotda rus tilida ham, o`zbek tilida ham omonimlar muhim o`rin kasb etadi. Ikkala tilda ham ular tilni boyitadi, ta`sirchan ifodasini oshiradi va asosiysi o`xshashliklarini ko`rsatib beradi. Rus va o`zbek tillaridagi ko`p ma`noli omonimlar so`z boyligi va turli xil mazmunni ifodalashi bilan tilni yanada ifodali qiladi va murakkab muloqot jarayonida aniq va to`g`ri ma`noni tushunishga yordam beradi. Badiiy asarlarda omonimlar yordamida kinoya, kulgu yoki kutilmagan vaziyatlarni ifodalashda keng qo`llaniladi. Chunki, omonimlar o`z o`rnida tinglovchini o`ylashga majbur qiladi va mazmunni yanada chuqur ifodalaydi.

Omonimlar tarjimada yoki til o`rganishda biroz qiyinchilik tug`dirishi tabiiy holat, sababi ular bir xil shaklga ega bo`lsa-da, turli kontekstlarda butunlay boshqa ma`noni ifodalab keladi. Bu o`z navbatida bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi.

1. **Chalkashtirish xavfi.** Omonimlar turli matnlarda boshqa ma`nolarni anglatib kelishi sabab, tinglovchilarda ularni tog`ri tushunmaslik yoki chalkashtirish xavfi paydo bo`ladi. Masalan, rus tilida “ключ” so`zi “buloq”, “kalit” yoki “eslatma belgisi” ma`nolarida keladi. Agar tarjimon mazmunni to`g`ri anglab yetmasa, noto`g`ri ma`no chiqarishi mumkin.

2. **Noto`g`ri tarjima qilish xavfi.** Tarjimonlar omonimlarni xato tarjima qilib. Matnning asl ma`nosini yo`qotishi mumkin. Masalan, rus tilidagi “улитка” so`zi “malyuska” yoki “ichki quloqning bir qismi” ma`nosini anglatadi. Agar tarjimon buni noto`g`ri talqin qilsa, xato tarjma qilish ehtimoli yuqori.

3. **Kontekstga bog`liqlik.** Omonimlarning ma`nosini to`g`ri aniqlash uchun mazmunni yaxshi anglab yetish zarur. O`rganuvchilar kontekstni tog`ri tushunishni

hali anglamagan bo`lsalar, omonimlarni tushunish murakkablik qiladi. Masalan, o`zbek tilidagi “o`z” so`zi ham oldinga o`tib ketish, ham o`zlik olmoshi bo`lib kelishi mumkin.

4. **Til o`rganuvchilardagi muammolar.** Yangi tilni o`rganuvchilar omonimlarni tushunishda doim qiyinchilikka duch kelishadi. Negaki, bir xil so`zning turli ma`nolarini o`rganish oson emas. Bu o`z navbatida o`rganuvchilarni chalkashtiradi.

5. **Sun`iy intelekt tarjimonlari uchun muammo.** Hozirda eng ko`p foydalilaniladigan va mashhur bo`lgan sun`iy intelekt tarjimonlari. Hayratda qolarlisi shuki, omonimlar sun`iy intelekt asosida ishlaydigan tarjima platformalari uchun ham murakkablik tug`diradi. Sababi, bu tizimlar uchun doim mazmunni aniq anglash va omonimlarni o`z o`rnida tarjima qilish har doim ham oson emas.

Xulosa qilib aytganda, omonimlarni to`g`ri anglab yetish, o`z o`rnida tarjima qilish uchun gapning mazmunini tushunish talab qilinadi.

O`zbek tilida omonimlar mumtoz adabiyotda tajnis san`ati va tuyuq janrini yaratishda, askiya payrovlarida esa so`z o`yini va qochiriq sifatida ishlatiladi. So`z ustalari, ayniqsa, shoirlar ([Al-Xorazmiy](#), Lutfiy, [Navoiy](#), [Bobur](#), So`fi Olloyor, Habibiy va boshqalar) poetik ta`sirchanlikni oshirishda omonimlardan mahorat bilan foydalanganlar. Rus va o`zbek tillarida omonimlarni o`rganish bu tilni chuqurroq anglashga yordam beradi. O`quvchilar omonimlar orqali tilning nozik jihatlarini anglab yetadilar.

Omonimlik dunyodagi barcha tillarga xos bo`lgan xususiyatdir. Omonimlar bilan bir qatorda tilda ularning alohida turlari sifatida omograflar (bir xil yoziladigan, lekin urg`u va talaffuz bilan farqlanadigan so`zlar: olma-olma, tom (uy tomi) – tom (kitob tomi) va b. hamda omofonlar (bir xil talaffuz qilinadigan, lekin yozilishida farq qiladigan so`zlar: yeti (son) – yetdi (fe'l); yot (begona) – yod (xotira) va b.). Omonimiyaning mazkur barcha ko`rinishlariga mansub so`zlar ma`nosasi asosan matn orqali bilinadi. O`zbek tilida keng tarqalgan omonimlardan bittasi “ko`k” so`zi moviy rang, osmon, ko`kat, esk. yirik-yirik chok ma`nolarida kelishi mumkin. “Ko`k” so`zi kontekstda quyidagicha kelish ehtimoli bor.

1. Tiniq osmon rangidagi; moviy, zangori. Ko`k ko`z. Ko`k bo`yoq. — Qo`limizda tovlanar jajji-jajji bayroqlar, Osmonda ko`k, qizil shar yengil uchib o`ynoqlar. I. Muslim.

2. Yer ustida gumbaz shaklida ko`rinib turadigan havo qatlami; osmon. Enkayganga enkaygin, boshing yerga tekkuncha, Kekkayganga kekkaygin, boshing ko`kka yetguncha. Maqol

3. O`sayotgan o`t-o`simplik, o`t-o`lan; maysa, ko`kat. Yomg`irlar yog`ib, yerda o`t-o`lanlar ko`rina boshladi, hayvonlarning og`zi ko`kka tegdi. M. Muhammadjonov, Turmush urinishlar.

Rus tili leksikologiyasida omonimlar to`liq va to`liq bo`lmagan omonimlarga bo`linadi. To`liq omonimlar – yozilishi va talaffuzi bir xil bo`lib, lekin leksik ma`nolari turli xil bo`lgan bir xil gap bo`lagidagi so`zlardir. Masalan, “гранатовый сок (фрукт) – гранатовый браслет (камень)”. Rus tilida to`liq bo`lmagan omonimlar mavjud bo`lib, ular omograflar, omofonlar va omoformlarni o`z ichiga oladi.

1. **Omofonlar** bu – talaffuzi bir xil, ammo yozilishi va ma`nosi turlicha bo`lgan so`zlardir, masalan, “туш” ва “тушь”.

- Вчера он организовал чудесный бал.
- Они получили высокий балл в конкурсе.

2. **Omograflar** – imlo jihatidan bir xil, lekin tovush va ma`no jihatidan farq qiluvchi so`zlardir, masalan, “замок” ва “замок”.

- Основной ингредиент сладостей – мука.
- Какая же мука здесь сидеть!

3. **Omoformlar** – ma`lum bir grammatic holatda mos keladigan turli xil so`zlar, masalan, “лететь” ва “лечить” fe`llari hozirgi zamonning 1-shaxs birlik holatida “лечу” mos keladi.

- Принести, пожалуйста, мою книгу.
- Сегодня я мою посуду.

Har ikki tilda ham omonimlar mavjud bo`lsa-da, ular tildan tilga o`ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Rus tili va o`zbek tilida ko`p hollarda shakl va talaffuzning bir xil bo`lishini ko`rish mumkin. Ikki tilda ham to`liq omonimlar keng tarqalgan va ularning ma`nosi mazmunidan aniqlanadi. Omomimlarning har ikki tildagi o`ziga xos xususiyati lug`at boyligi va so`z boyligini kengaytirish uchun xizmat qilishida. Omonimlarning yana bir ko`zga tashlanadigan farqi rus tilida grafik va fonetik omonimlarning ko`p uchrashi, o`zbek tilida esa aksincha. Rus tilida semantik jihatdan bog`lanmagan so`zlar ko`pligi bois, boshqa tilga tarjima qilinganda ular qiyinchilik tug`diradi. O`zbek tilida esa leksik va semantik omonimlar nisbatan oddiy.

**Xulosa.** Hayotimizda omonim so`zlar juda ham ko`p uchraydi. Ikki tilda ham omonimlarning tilshunoslikda va muloqotda o`rni, ahamiyati muhim o`rin tutadi. Omonimlar asosan nutqning kengligi, ifodaviyligi uchun xizmat qiladi. Ular adabiyotda va nutqda stilistik vosita sifatida keng qo`llaniladi. Badiiy adabiyotda ham omonimlardan faol foydalilanadi. Asarlarda omonimlar mavzuni chuqur ochib berib, tinglovchini keng o`ylashga majbur qiladi. Omonim so`zlarni tushunish bizga qiyinchilik tug`diradi. So`zning ma`nosini tushunishimiz uchun, kontekstni to`liq o`qib chiqishimiz talab qilinadi. Biz omonim so`zlardan kundalik hayotimizda faol tarzda foydalanamiz. Ikkala tilda ham omonim so`zlar bir xil shakl va talaffuzga ega bo`lib,

turlicha ma`nolarni ifodalaydi. Mening fikrimcha, rus va o`zbek tillaridagi ko`p ma`noli omonimlar so`z boyligi va turli xil mazmunni ifodalashi bilan tilni yanada ifodali qiladi va murakkab muloqot jarayonida aniq va to`g`ri ma`noni tushunishga yordam beradi. Omonimlarning kelib chiqishidan ko`ra, ularning qaysi so`z turkumiga kirishi, ma`no va vazifasi biz uchun muhimdir. Misol qilib aytadigan bo`lsak, “Otdan tushsa ham egardan tushmaydi”, “Ishimni oxirigacha yetkazmasam otimni boshqa qo`yaman” shu kabi omonim so`zlarni ishlatish kundalik odatimizga aylanib qolgan. Ko`pgina yozuvchi va shoirlar asarlarida ta`sirchanlikni oshirishda omonim so`zlardan mahorat bilan foydalanganliklarini ko`rshimiz mumkin. Omonimlik xususiyati dunyo tillarida o`ziga xos o`ringa ega. Barcha tillarda omonimlar va ularning turlari mavjud. Biz qanchalar ko`p omonim so`zlarni o`rganganimiz sayin, shuncha tilning nozik jihatlarini tushunib olamiz. Omonim so`zlarni deyarli hamma tillarda uchratishimizga qaramay, ularning boshqa tillardan ajralib turuvchi jihatlari bordir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O`zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Omonimlar lug`ati [Elektron resurs] URL  
<https://www.uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary>
3. Введение в языкознание / Э.Ф.Исламова, Р.М.Болгарова // Казань – 2016 – 81 с.
4. Введение в языковедение / А.А.Реформатский / Москва – 1996 – 275 с.
5. Словарь омонимов русского языка / О.С.Ахманова/ Москва – 1974 – 448 с.
6. Tilshunoslikka kirish / Z.T.Xolmanova / Toshkent – 2007 – 177 b.
7. Tilshunoslikka kirish / M.Abuzalova, D.Yo`ldoshev / Toshkent – 2005 – 176 – b.